

AT "Aloqabank"
Boshqaruvi yig'ilishining
2024-yil 30 oktabr dagi
722 - sonli bayoniga
9 - ilova

"Jismoniy shaxslarni kreditlash tartibi"ga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

AT "Aloqabank" Boshqaruvi yig'ilishining 2024-yil 1-iyuldagi 426-son bayoni bilan tasdiqlangan va 906-son bilan ro'yxatga olingan "Jismoniy shaxslarni kreditlash tartibi" (bundan buyon matnda "Tartib" deb yuritiladi)ga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

I. Tartibning "II. Kredit ajratish shartlari hamda qarz oluvchi, birgalikda qarz oluvchi va kafilga nisbatan qo'yiladigan talablar" bo'limidagi 2.16.8-bandi yangi tahrirda bayon etilsin:

"2.16.8. Avtokredit ajratish avtotransport vositalarini ishlab chiqaruvchi, realizatsiya qiluvchi yoki yetkazib beruvchi tashkilotning, komissionerlik shartnomasi bo'yicha bo'lganda komissioner tashkilotning bankdagi hisobvarag'iga (*sotuvchi shaxs jismoniy shaxs bo'lganda sotuvchi shaxsning nomiga Bank tomonidan emissiya qilingan bank kartasiga yoki omonat hisobvarag'iga*) pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi."

II. Tartibning "VII. Kreditlarning monitoringi, kredit ta'minoti bilan bog'liq jarayonlar va kreditdan maqsadli foydalanishni nazorat qilish" bo'limidagi 7.19-bandi quyidagi yangi tahrirda bayon etilsin:

"7.19. Uchinchi shaxslarning kafilligi yoki Kreditning qaytmaslik xataridan sug'urta polisi Kredit summasi **50 (ellik) million so'mdan oshmagan** hollardagina asosiy ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin, ajratiladigan Kredit miqdori **50 (ellik) million so'mdan oshgan** hollarda ta'minot sifatida likvidli mol-mulk garovi olinishi lozim (jismoniy shaxslarga ajratiladigan mikroqarzlarni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobidan ajratiladigan ta'lim kreditlari bundan mustasno)."

III. Tartibga kiritilayotgan ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan hamda ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.